



"IJTIMOIY ISH XODIMINING PROFESSIOGRAMMASI UNING MAJBURIYATLARI VA VAZIFALARI. IJTIMOIY ISH SOHASI XODIMIGA QO'YILADIGAN AXLOQIY VA MA'NAVIY TALABLAR MOHIYATI"

Xoshimova Mohinur Baxtiyorjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Tarix fakulteti Ijtimoiy ish yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ijtimoiy ish bu - o'ziga xos professionallik bo'lib, u axloqiy kodeks vazifasini bajaradi. Odamlar o'rtasida ularning tabiatiga mos keluvchi axloqiy munosabatlarni ta'minlaydi. Bu munosabatlar esa mehnat muhofazasiga va kasbiy kompetentlikka bo'lgan talablardan kelib chiqadi. Maqolada ijtimoiy ish xodimiga qo'yiladigan axloqiy va ma'naviy talablar yoritilgan. Ijtimoiy ish xodimlari axloqiy qoidalarining Milliy xususiyatidan kelib chiqib ish ko'rish malakasi va ko'nikmalariga ega bo'lib borishi kasbiy faoliyat uchun muhim sanaladi. Xodim majburiyatlari, nimalardan tashkil topganligi ham izchil yoritilib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Professionallik, vazifalar, majburiyat, axloq, ma'naviyat, kasb ko'nikmasi, malaka, ijtimoiy ishning noyob tavsifnomasi.*

Kirish: " Ijtimoiy ish" butun dunyoda qabul qilingan ibora bo'lib, u insonning - insonga gumanistik munosabatini bildiradi.

O'zbekistonda ijtimoiy ish xodimining professional va Etik Kodeks, ijtimoiy ish bo'yicha Milliy komandaning, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv Markazi, Toshkent davlat Madaniyat instituti hamkorligida BMTning O'zbekistondagi YUNISEF bolalar jamg'armasi ko'magida amalga oshirilayotgan "O'zbekiston ijtimoiy ish kasbini ilg'or surish va ijtimoiy ish bo'yicha qayt tayyorlash", dasturiy loyhalari asosida amalga joriy qilinmoqda. Ijtimoiy ish xodimlarining majburiyatlarini bajarishlarida, etik tamoyillar, professionallik, kamsitishga qarshi amaliyot yo'nalishiga rioya etishni, shuningdek Kodeksni professional va shaxsan qabul qilishni ko'zda tutadi. Ushbu Kodeks Ijtimoiy ish xodimlari Xalqaro Federatsiyasi (IFSW)ning 2004-yilda Adelaide (Avstraliya)da o'tkazilgan, Ijtimoiy ish bo'yicha Maktablar Xalqaro Assotsatsiyasi va Ijtimoiy ish xodimlari Xalqaro Federatsiyasining umumiy uchrashuvida tasdiqlangan, "Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar Deklaratsiyasi" hujjatini o'z ichiga olgan tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan. Ijtimoiy ish o'zining turli shakllarida odamlar va ularning atrofidagi kishilar o'rtasidagi ko'p sonli murakkab aloqalar bilan shug'ullanadi. Professional ijtimoiy ish xodimi muammolarni hal qilish va o'zgarishlarga erishishga harakat qiladi. Ijtimoiy ish xodimlari jamiyatdagi va o'zlari xizmat ko'rsatayotgan individual yoki oilalar va hamjamiyat hayotidagi o'zgarishlar agenti hisoblanadilar. Insonlarga xizmat qilish va vijdoniylik, jamiyat e'tiborini ijtimoiy muammolarga jalb qiladigan, ochiq hamda o'ziga xos ishonch uyg'otadigan tarzda odamlarga yordam ko'rsatishni nazarda tutuvchi kasbi faoliyat, ham ijtimoiy ish uchun asos vazifasini



bajaradi. Har bir sohaning o'ziga xosligini hisobga olsak, ijtimoiy xodimlar mijozga faqat muammoni hal eta olish mahoratini emas balki qiyin vaziyatlarni yengishning yangicha ko'nikmasi va malakalarini ham yuzaga keltira olishi lozim. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy ish boshqa sohalarga nisbatan faolroq va ko'p subektli hamda ko'p qirrali faoliyat hisoblanadi.

Asosiy qism: Ijtimoiy ish, o'z sarchashmalarini insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan va demokratik ideallardan oladi, uning qadiryatlari, tengligi har bir shaxsning qadiriylati va har bir insonning qadr-qimmatini hurmat qilishga asoslanadi. Kasbining paydo bo'lishidan boshlab, deyarli bir yarim asr avval ijtimoiy ish amaliyotining diqqat-e'tibori, umuminsoniy ehtiyojlar va inson imkoniyatining rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan deya olamiz. Inson huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy haqqoniylik ijtimoiy ish xodimlari faoliyati uchun motivatsiya va sabab bo'lib xizmat qilmoqda." Zaif" ijtimoiy qatlamga hamfikrlik tufayli, faqirlikni yengillashtirishi, himoyaga muhtoj va ruhan ezilgan odamlarni jamiyat a'zosi sifatida faoliyat yuritishlarini faollashtirish uchun intiladi, ijtimoiy ish xodimlari. Ijtimoiy ish qadiryatlari professional, milliy va etik kodekslarda mujassam. Quyida ijtimoiy ish xodimining professional ko'nikma va malakalarini ko'rib chiqamiz. Demak ijtimoiy ish xodimi quyidagilarni uddalashi kerak:

- o'zining professional amaliy faoliyatida professional-etik me'yorlarga amal qilishi;
- shaxslar, oilalar va uyushmalar bilan ishlashni uddalashi;
- aholining turli guruhleri (bolalar, yoshlar, ayollar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar) xususiyatlarini bilishi va ularga yordam ko'rsata olishi;
- muloqot malakasi (mijozlar, bolalar, hamkasabalar va boshqa mutaxassislar bilan shaxslararo muloqot ko'nikmalari, verbal va noverbal muloqot mahorati) ga eng bo'lishi;
- baholash va rejalashtirish malakasiga ega bo'lishi (to'la baholash uchun axborotlarni yeg'ish va tahlil qilish, mijozlar vaziyatini baholash asosida aniq rejalar va bitimlar, tashkilotda o'rnatilgan talablarga mos keluvchi aniq va yakdil qaydlarni olib borishi);
- o'z - o'zini boshqarish malakasiga ega bo'lishi (shaxsiy ishi va vaqtini uyushtira olish, o'zining kuchli va zaif tomonlarini bilishi);
- amaliyotda nazariyalarni qo'llashga qodirlik (ijtimoiy ish nazariyasini bilish va tushunishi, amaliy faoliyat uchun munosib nazariyalarni tanlay va qo'llay olishi malakasi);
- aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizimidan foydalanish;
- o'zining professional vakolatlilikini oshirishga doimo intilishi.

Bundan tashqari xodim quydagi zaruriy bo'lgan shaxsiy-professional sifatlarga ega bo'lishi, va shu o'rinda bu sifatlarni rivojlantirishi va nomoyon qilmog'i zarur.



- har bir odamning qadriyatlarini shaksiz qabul qilish, uning huquqlarini hurmatlashi;
- odamlarning individual farqlariga bahosiz munosabati, insonparvarlik;
- rivojlangan o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini baholash, tanqidiy tafakkurga ega bo'lishlari;
- empatiya (hamdardlik va xayrixohlik qobiliyati);
- murakkab vaziyatlarni hal qilishdagi qat'iyatlilik va izchillik;
- yordam ko'rsatilayotgan odamlar va oilalarning kuchli tomonlarini ko'ra bilish va rivojlantirish mahoratiga ega bo'lish;
- stressli va hissiy murakkab vaziyatlarda ishlash ko'nikmasi, bir holatdan boshqasiga o'tish, o'z hissiyotlari va axloqini boshqarish qobiliyatlariga ega bo'lishlari xodimining shaxsiy- professional sifatlari sanaladi.

Deyarli barcha kasb egalari, o'zlarining majburiyatlari va kasb vazifalariga ega bo'lib, unga amal qilishlari ish jarayonida turli noqulay vaziyatlarga tushib qolishdan xodimni asraydi. Shu asosdan kelib chiqqan holda ijtimoiy ish xodimi ham ish jarayonida quydagi vazifa va majburiyatlarga ega sanaladilar.

Ijtimoiy ish xodimlari majburiyatlari quydagilarni qamrab oladi:

- va'zxonlik qilmaslik, buyruq bermaslik;
 - mijoz shaxsining sha'ni va betakrorligini hurmat qilib uni harakatga, tashabbusga, ijodga undash;
 - muloqotmand bo'lish, ochiq bo'lish, mijozni "gapirtira bilish", birgalikda muammolarning yechimini aniqlash;
 - atrofdagilar uchun kerakli va qiziqarli bo'lish;
 - mijoz va uning atrofidagilar o'rtasida vosita, bog'lovchi halqa bo'lish, mijozga ko'rsatilayotgan xayriya yordamlar orqali uning sha'ni pastga urilishiga yo'l qo'ymaslik;
 - shaxs yoki odamlar guruhida g'ayriinsoniy va diskriminatsion yondashuvlarni oldini olish;
 - faqatgina o'zi vakolatli bo'lgan doirada ish yuritish, o'z ishining sifati uchun shaxsan mas'ul bo'lish;
 - mijoz ishonib bildirgan sirni hurmat qilish va uni fosh etmaslik;
 - o'z amaliy faoliyatini kasbiy bilimlar asosida tashkil etish;
 - xodim o'z kasbini obro'si va pokligini himoya qilishga doimo intilishi;
- Malaka tavsifi bilan belgilangan majburiyatlarni bajarish uchun ijtimoiy ish xodimi o'zining quydagi huquqlaridan keng foydalanadi:
- mijozlarning manfaatlarini qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati organlariga ifodalash va himoyalash;
 - mijozlar ehtiyojlari bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, aholi orasida sotsiologik so'rovlar, diagnostik tadqiqotlar o'tkazish;



- mijozlarning ijtimoiy va shaxsiy muammolarini hal qilish to'g'risidagi rasmiy so'rovlar va iltimoslari bilan jamoat tashkilotlariga, davlat muassasalariga murojaat qilish;

- o'z faoliyat doirasidagi u yoki bu muammoning holati to'g'risida davlat idoralariga axborot berish;

- oiladagi tarbiya, ijtimoiy ishdagi tajribani ommaviy axborot vositalari yordamida targ'ib qilish uchun fao ish yuritish;

- muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan jamoat tashabbuskorlik harakatlariga boshchilik qilishni qamrab oladi.

Ijtimoiy ish umumiy ma'noda odamlar madaniyatini o'rganadigan, ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini egallaydigan moddiy, ma'naviy va ijtimoiy munosabatlarga qo'shiladigan jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin. Shaxs va jamoaning ijtimoiy shakillanishi, odatiy jarayon sifatida izohlans ham ilmiy asoslangan ijtimoiy ish unga maqsadga yo'naltirganlik baxsh etadi. Ilmiy asoslangan ma'lumotlarga ko'ra, ko'p soha mutaxassislari doimo ijobiy tajribaga tayanishda, "personalni" optimistik gipotezadan foydalanishga intiladilar. Ijtimoiy ish xodimlari ham shunday, ya'ni qiyin xayoti vaziyatga uchragan insonlar toifasi yoki zo'ravonlikka uchragan (bolalar, ayollar) bilan shunday kasbiy mohirlikka ega bo'lib, mijozda yanada hayotga ishonch, mehr va maqsadlarni paydo qila olishi kerak. Bunday vaziyatlarni o'z ichiga olishi bilan ijtimoiy soha o'zining noyobligiga ega deb ayta olamiz. Ijtimoiy xodimning samarali muloqotini ta'minlovchi sifatlar ham mavjud bo'lib, ular mijoz va xodim o'rtasida mijoz muammolarini tushunish va amaliy yordam ko'rsatish uchun ko'prik vazifasini bajaradi. Aytib o'tish o'rinliki, ba'zi bir insoniy sifatlar samarali shaxslararo munosabatlarni qurishning zarur shartlaridan hisoblanadi. Jumladan, ijtimoiy ishda ham zarur bo'lgan sifatlarning asosiy guruhini quydagilar tashkil etadi:

- mijoz bilan munosabatlardagi samimiylik ;
- ochiqlik;
- empatsiya (xayrixohlik);
- o'zga kishilarga nisbatan ijobiy munosabat bildirish;

Amerikalik olimlar G. Djun, Xopps, Eleyv va B.Pinderxyus turli darajadagi ijtimoiy xodimlarning axloqiy va malakalilik holati uning amaliy faoliyatida qo'l kelishini o'zlarining ilmiy va amaliy nazariyalarida yoritib berishga. 1994-yil "Ijtimoiy ish xodimlarining Xalqaro Federatsiyasi", tomonidan qabul qilingan "Ijtimoiy ish etikasi: asoslar va standartlari" hujjatida, ijtimoiy ish xodimining professional bilimdonligi va axloqiy javobgarligi to'laqonli yoritilib o'tilgan. Bu hujjatda bayon etilgan ijtimoiy etik va axloqiy me'yorlari, ijtimoiy ish xodimiga bo'lgan talablar tizimini shart qilib qo'yadi va mutaxassisning shaxsiy fazilatlarini ahamiyatini ta'kidlaydi. Darhaqiqat Etik-axloqiy bilimlar, ijtimoiy ish xodimi professional faoliyatining zaruriy qismi. Ijtimoiy ish mutaxassisning axloqiy me'yorlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati, mijozlarga taklif etilayotgan xizmatlarning ishonchli ekanligi va sifatini oshiradi. Ijtimoiy ish xodimlarining xulq-atvorining asosiy standartlari mohiyati bu uning axloqiy va



ma'naviy gipotetik modelida bilinadi. Buyuk mutafakkir Arastu, "Insonning ma'naviy fazilatlari, bir tomondan butun jamiyatga, ikkinchi tomondan esa insonning o'ziga foyda va lazzat keltiruvchi faoliyatida shakllanadi", deb o'rinli ta'kidlaydi. Ya'ni, ijtimoiy foydali faoliyat inson ma'naviyatini yuksaltirishda asosiy poydevorlardan bir sanaladi. Ijtimoiy ish xodimlarida ma'naviy fazilatlarining vujudga kelish o'zagida, o'z-o'zini tarbiya qilishga intilish yotishi darkor. Aytish joyizki, tabiatiga ko'ra o'z - o'zini tarbiya qilish bu ijtimoiy jarayondir. Bu esa o'z navbarida ijtimoiy munosabatlarda o'zini anglaydigan shaxslarga taalluqli hisoblanadi. Ijtimoiy ish xodimlari o'z-o'zini tarbiya qilish bilan shug'ullanishi, ularning ijtimoiy va kasbiy vazifalarini hal etishga imkon beruvchi, fazilatlarga ega bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirishga zamin yaratadi. Alohida urg'u bilan e'tibor berish lozimki, ijtimoiy ishchilarning ma'naviy fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha, o'z-o'zini tarbiya qilishning dastlabki bosqichi bo'lib, o'zini anglash ya'ni, qanchalik darajada xodim bu fazilatlarni o'zida, qanchalik shakllanganligini ongli ravishda tushunib yetishiga bog'liq. O'zini anglash, ijtimoiy ish xodimlariga ma'naviy fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha, o'zining oldiga vazifalar belgilab olishga imkon yaratadi. Bu esa o'z navbarida ijtimoiy ish xodimlariga o'z ma'naviy fazilatlarini, mukammallashtirish bo'yicha qilinadigan xatti-harakatlar modelini yaratishga turtki bo'lib, uni o'zining ustida ish olib borishga chorlaydi. Shu o'rinda bir qator tadqiqotchilar, ma'naviy mezonlarni umumiy tarzda quydagicha belgilab o'tadilar. Erkin, mustaqil fikrlash, o'zgarar fikrini e'tiborga olish, bilimli, irodali, axloqli, jamoatparvar, yurtga sadoqatli bo'lish, o'z kasbini sevishi, hodisalarga ongli ravishda muayyan munosabat bildirish, jamiyat ishida faol ishtirok etish qamrab oladi. Ijtimoiy ish xodimlarining ma'naviy, axloqiy dunyosi o'ziga xos tamoyillarni o'z ichiga qamrab oladi. Sababi u kasbiy faoliyatidan kelib chiqib, yordamga muhtoj insonlar va umumiy ma'noda insonlarning muhiti va o'zlari bilan ishlaydi. Yuksak ma'naviy fazilatlar, ijtimoiy ish xodimlariga kasbiy-amaliy faoliyatida, yutuqlarga erishishining eng muhim omili bo'lib, xizmat qiladi. Shuni ayta olamanki, har bir inson holatidan, mavqeyidan qat'iy nazar, noyob hodisa bo'lib ularga axloqiy jikatdan e'tibor berilishi kerak. Buni ijtimoiy ish xodimi yaxshi anglab olishi zarur. Barcha ilmiy va amaliy nazariyalar asnosida bu kasbiy faoliyatning mohiyatini o'rganar ekanman, bu faoliyat o'zining noyob tavsifnomasiga ega desan bo'ladi. Ular quydagilarni qamrab oladi:

1. Ijtimoiy ish xodimlari ba'zi kasblar diqqat-e'tiborini alohida individual yoki yaxlit holda jamiyatga qaratilgan muhitida ko'rib chiqadi.
2. Ijtimoiy ish xodimlari ijtimoiy ko'makka muayyan, yo'nalishga ega aholining zaif qatlamiga alohida e'tibor qaratadi, u ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltiradi.
3. Ijtimoiy ish xodimlari mijozlarni o'z-o'zini aniqlashga alohida urg'u berildi, mijoz o'rtasidagi munosabatda ochiqlik va o'zaro do'stlik bilan tavsiflanadi, bu esa muammoning maqbul yechimi uchun imkon beradi.



Xodim mijoz bilan bu jarayonlarni chuqur anglab yetgan holda, ish ko'ra olishi kerak. Ijtimoiy ish kasbi yuqorida aytib o'tilganidek, bevosita insonlar bilan bog'liq. Ularning muammolariga faqatgina ongli ravishda o'zlarini anglash orqali yechim topishni, xodim mijozlariga tasirli darajada tushuntira bilishi juda muhim sanaladi. Albatta bunda mijoz holatidan kelib chiqib ish ko'riladi. Ijtimoiy ish kasbi "global" darajada e'tirof etmoqda. Bu esa ijtimoiy xodimlariga bo'lgan talabni oshishiga va kasbiy faoliyatni kengayishiga yordam beradi. Buning negizida esa muhimi insonning farovon hayot kechirishi, ularning tinchligi yotadi. Ijtimoiy ish xodimlari jamiyat rivoji uchun kerakli kasb egalari deb ayta olaman.

Xulosa: Aytish joyizki, bugun dunyoda juda ko'p yangi kasblar vujudga kelmoqda. Ular orasida ijtimoiy ish kasbi tobora globallashtirilmoqda. Inson omili bilan ish ko'radigan bu kasb faoliyati, o'zining noyobligi bilan ham ajralib turadi. Globalizatsiya jarayonlari rivojlanib borishi sharoitida, jahonda aholini ijtimoiy himoya qilish zaruriyati ham ortib bormoqda. Ijtimoiy ish sohasida, har bir davlatlarda qilinayotgan islohotlar bu o'sha davlatning ijtimoiy siyosatini barqaror bo'lishiga zamin yaratadi. Bu jarayonlarni tushuntirishda esa ijtimoiy xodimlariga ahtiyoj seziladi. Har bir kishi o'zining kelajagini, buyuk bir maqsad shaklida bashorat va tasavvur qila olmasa, uning bunyotkorlik faoliyati susayadi hamda asta-sekin o'z qiyofasini, o'zligini yo'qota boshlaydi. Ijtimoiy ish kasbi ham shunday, ya'ni xodim kimga va qanday yordam berishni manzilliy qo'llay olish juda zarur. Ijtimoiy ish ko'plab amaliy xususiyatlarga ega. U faqat nazariydan iborat emas, balki o'z tarkibiga uzviy ravishda muayyan amaliy tajriba ma'lumotlarini ham qamrab oladi. Turli guruhlar va qatlamlar hayotining muayyan shart-sharoitlari o'rganish, ijtimoiy ish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshirishga imkon beradi. Ijtimoiy ish sohasiga xos alohida holat shundaki, u "to'liq inson huquqlarini" ta'minlashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Inson uchun hayotidagi birinchi ustoz ehtiyoj va tajribadir. Anashular insonni foydali va zararli narsalarni farqlash darajasiga olib chiqadi. Buni ijtimoiy ish xodimi kasbiy amaliyotida anglab yetadi. Ijtimoiy ish quydagi asosiy mezonlarga tayanadi. Ular:

- inson qadir-qimmatini va qadriyatini;
- ijtimoiy adolatni ta'minlash;
- insonparvarlikka xizmat qilish;
- butunlik;
- kompetentlikka erishish;

Ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lidagi izlanishlar, yomon sharoitlarni kamaytirishga va ularni yengish strategiyasini ishlab chiqishni qamrab oladi. Ijtimoiy adolat esa jamiyatni rivojlanishi va takomillashib borishining qudratli omili hisoblanadi. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, muhim ijtimoiy ish xodimi, insonlarni samimiy yaxshi ko'ra olishi, ularga ko'mak ko'rsata olishi bir so'z bilan aytganda, yordamga muhtoj shaxslarning yoki qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan insonlarning hayotiga o'zgarishlar, burulishlar yasay oladigan kasb egalari hisoblanadilar. Ularning amaliy faoliyati esa yurt farovonligini ta'minlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. " Ijtimoiy ish asoslari" M. X. Ganiyeva. Toshkent 2012.
2. " Социальная работа как феномен культуры" Э.П. Агапов. 1999.
3. " XXI век социального работника" М.Х. Ганиева 2005.
4. " Ijtimoiy ish etikasi" M.X. Ganiyeva, N.M. Latipov, I.Negmatov, L.N.Jo'rayev, M.B.Sherov. 2015.
5. Xoshimova, M. (2023). " ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN BOLALAR BILAN, IJTIMOIIY ISH TEXNOLOGIYALARI". Академические исследования в современной науке, 2(1), 96-99.
6. Xoshimova, M. (2022). " INKLYUZIV TA'LIMDA NOGIRONLIK TURLARINING MUTANOSIBLIGI". Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya, 1(6), 162-166.
7. Xoshimova, M. (2022). BOLALAR TARBIYASIGA-IJTIMOIIY NAZAR, BOLA O'ZLIGINI NUQSONLARSIZ SHAKLLANTIRISH. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(13), 157-163.